

O'ZBEK TILINING XALQARO MIQYOSDA O'QITILISHI VA TARG'IBOTI

Baxtiyorova Sevinch Shodmon qizi

Navoiy inovatsiyalar universiteti

filologiya va tillarni o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi

Juraqulov G'ulomjon Hamrayevich,

NIU, Filologiya va tillarni o'qitish kafedrası

katta o'qituvchisi

Abstract. *In today's global environment, the development of international tourism and the establishment of cooperation with countries of the world in various fields, the increase in the number of migrants visiting our country, and their activities require to promote learning the Uzbek language. The article discusses the international tourism of the Uzbek language. According to it, the recent increase in international production of the Uzbek language, the opening of Uzbek language courses in higher education in the state, and the cultural and international significance of this process are discussed.*

Keywords: *Uzbek language, teaching as a foreign language, use, language policy, cultural diplomacy, international cooperation, the prestige of the Uzbek language.*

Annotatsiya. *Bugungi global muhitda xalqaro turizmning rivoj topishi hamda dunyoning yetakchi mamlakatlari bilan turli sohalarda hamkorlikning yo'lga qo'yilayotgani, shuningdek, yurtimizga tashrif buyuruvchi, karyera qiluvchi migrantlar sonining oshib borishi o'zbek tilini o'rgatishni ommalashtirishni taqozo etadi. Maqolada o'zbek tilining xorijiy mamlakatlarda chet tili sifatida o'qitilishi yoritilgan. Unga ko'ra so'nggi kunlarda o'zbek tiliga bo'lgan xalqaro qiziqishning oshib borishi, xorijiy davlatlardagi oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kurslarining ochilishi va bu jarayonning madaniy va diplomatik ahamiyati haqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbek tili, chet tili sifatida o'qitilishi, xorijiy til siyosati, madaniy diplomatiya, xalqaro hamkorlik, o'zbek tili nufuzi.*

Endilikda dunyodagi eng mashhur va yetakchi universitetlardan biri Oxfordda o'zbek va eski o'zbek tillari o'rgatiladi. 11-may kuni Respublika ta'lim markazi axborot xizmati va unga tayangan holda qator internet saytlari bu haqda e'lon qilindi. Bu xabar e'lon qilinishi bilan internet tarmoqlarida muhokama boshlandi. Bu muhokamalarda nafaqat ijobiy fikrlar, balki salbiy fikrlar ham bildirildi. Masalan: "Bu bilan davlat tilining qadrini tushirishadi", "Nahotki, endi bizning tilimiz ham chet el muassasalarida o'qitiladi" va shu kabi fikrlar bildirildi.

Prezident administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva o'zining telegram kanalida bayon qilishicha: Oxford universitetida o'zbek tili bo'yicha darslar 2024 yil yanvar oyida 15 nafarga yaqin talaba ishtirokida boshlangan. Shuningdek, uning bayonotiga ko'ra, Mirzo Ulug'bekning "Ziji Ko'ragoniy", Alisher Navoiyning "Xamsa", Husayn Boyqaroning

“Devoni Husayniy” va Boburiylar davriga oid miniatyuralar va boshqa muhim kitoblar saqlanayotgan Bodlianda iliq tanishuv bo’lib otdi.

O’zbek tilining chet tili sifatida xorijiy muassasalarda o’qitilishi orqali xalqimizning tarixi, madaniyati, adabiyoti va qadriyatlari xorijda kengroq tarqaladi. Bu orqali esa O’zbekistonning xalqaro miqyosda mavqei oshishi kutiladi. Shuningdek O’zbekiston va chet el universiteti o’rtasida hamkorlik kuchayadi va o’zbek tilida izlanishlar ko’payadi. Xorijiy talabalarning o’zbek tiliga qiziqish bildirishi o’zbek tilining kengroq yoyilishiga olib keladi va bu esa o’zbek tilini rivojlantiradi. O’zbek tilini biladigan xorijiy mutaxassislar O’zbekiston bilan boshqa davlatlar ortasida iqtisodiy, madaniy hamda siyosiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o’ynaydi. Ularning mamlakatlar ortasida aloqa, tarjima, diplomatik muloqot va hamkorlik loyihalarida til vositachisi vazifasini bajaradilar. Shu tariqa o’zbek tilini biluvchi mutaxassislar xalqaro munosabatlarni mustahkamlaydi.

Bundan tashqari Germaniyada University of Bonn, Buyuk Britaniyada University of Cambridge, Xitoyda Beijing Foreign Studies University kabi muassasalarda o’zbek tili o’rganilyapti. Hamda Janubiy Karea, Yaponiya, Hindiston, Fransiya va AQSh kabi mamlakatlarda o’zbek tiliga bo’lgan qiziqish ortib bormoqda. O’zbekistondagi Tashkent State University of Oriental Studies da xorijiy talabalar uchun o’zbek tili va rus tillari bo’yicha kurslar tashkil etilgan, shuningdek, Erondagi Allameh Tabatabai University da ham o’zbek tili kurslari ochilgan.

Quyida o’zbek tilini o’rganmoqchi bo’lgan xorijliklar uchun qo’llanma va kitoblar nomi keltirilgan:

1. METHODS AND COMPONENTS OF TEACHING UZBEK LANGUAGE TO THE FOREIGN STUDENTS- D. Fayzieva, 2021-yilda e’lon qilingan. Chet tilida o’zbek tilini o’qitishda metodik komponentlar va usullar tahlil qilingan.

2. CHALLENGES AND PROSPECTS IN TEACHING THE UZBEK LANGUAGE TO THE FOREIGN STUDENTS- D. Pulatova, 2025-yil. Xorijiy talabalar uchun o’zbek tilini o’qitishda duch kelinadigan muammolar va kelajak istiqbollari.

3. UZBEK LANGUAGE: COMPLETE SELF-STUDY GUIDE IN 22 LESSONS- EGIPTda chop etilgan qo’llanma, chet tilida o’zbek tilini o’rganmoqchilar uchun.

4. APPROACHES TO DEVELOPING VOCABULARY IN TEACHING UZBEK AS A FOREIGN LANGUAGE: THEORETICAL PERSPECTIVE- M. Akhmadjonova, 2025-yil. Lug’at boyligini rivojlantirish usullari madaniy kompetensiya konteksti tahlil qilingan.

5. TEACHING UZBEK AS A FOREIGN LANGUAGE TO MEDICAL STUDENTS IN UZBEKISTAN- A. Avezova, 2025-yil. Tibbiyot fakultetidagi xorijiy talabalar bilan o’zbek tili o’qitilish tajribasi.

Bugunki kunda o’zbek tiliga bo’lgan qiziqish ortib borar ekan, mening fikrimcha, o’zbek tilini chet ellarda o’qitish dasturini kuchaytirish va kengaytirish kerak, o’qituvchilar tayyorlash tizimini rivojlantirish va zamonaviy o’quv adabiyotlarini yaratish dolzarb masalalardan biridir. Shunday qilib, o’zbek tilining xorijda o’qitilishi nafaqat til o’rganish imkonini, balki millatlararo madaniy muloqotni ham rivojlantiradi.

O’zbek tiliga bo’lgan qiziqishning ortishiga sabab bo’lgan omillarni tahlil qiladigan bo’lsak, bu jarayonda yurtimizning boy tarixiy merosi, qadimiy obidalar hamda Ibn Sino

singari buyuk allomalarimizga bo'lgan e'tibor muhim o'rin tutadi. Aynan shu omillar natijasida xorijliklar orasida o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan talab sezilarli darajada oshib bormoqda, ya'ni, bu turizm bilan bog'liq. O'zbekistonga kelayotgan xorijiy sayyohlar soni ortgani sari ular mahalliy madaniyat, urf-odat va tilga qiziq boshlaydilar. Madaniy turizm orqali chet elliklar milliy merosni chuqurroq tushunishga harakat qiladilar, bu esa o'zbek tilini o'rganish istagini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tosheva D., Ahmedov A. Bukhara: Uzbek Language for Foreigners. – BVS Buchverlag, 2021.
2. Uzbek Language: Complete Self-Study Guide in 22 Lessons. – Cairo: Al-Azhar Publishing, 2022.
3. Sadikova Sh., Sodiqova R. O'zbek tili (koreyslar uchun boshlang'ich kurs). – Toshkent: TDSHU nashriyoti, 2020.
4. Uzbek Language for Foreigners (A2 Level). – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021.
5. O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2023-yil 4-son – “Chet ellarda o'zbek tilini o'qitish masalalari” maqolasi.
6. yuz.uz – “Chet elda o'zbek tili o'qitilmoqda” nomli yangilik, 2024-yil.
7. tsuull.uz – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti xalqaro aloqalari haqidagi ma'lumot.